NOBARQAROR IQTISODIY VAZIYATDA RISKLARNING NAZARIY ASOSLARI

Xolikov Baxrom Eshmirzayevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti

Qabul qilindi: 01.02.2026 **Tasdiqlandi**: 02.02.2026
Ko‘rib chiqildi: 02.02.2026

Nobarqaror iqtisodiy vaziyatda moliyaviy riskni boshqarish, baholash va tahlil qilish boyicha shu kungacha o’zimizdagi mavjud va xorijiy materiallarni xar tomonlama keng o’rganish, bir tizimga keltirib, tahlil qilish ayni paytda quyidagilarni ko‘rsatmoqda:

- “risk” - tushunchasini hamma uchun bir xil qabul qilingan tarifi mavjud emas;
- har qanday amaliy va nazariy tasodiflar, holatlar uchun qo’llaniluvchi riskni kengaytirilgan ko’rsatkichlarini aniq hisoblash uslublari ishlab chiqilmagan;
- aniq vaziyatga riskning ma’lum darajasini “mos kelishi”ni aniqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan qo‘llanmalar mavjud emas;
- riskni holatini miqdoriy baholashga asoslanuvchi qoida va meyorlarni shakllantirish imkonini beruvchi meyoriy-huquqiy konsepsiya ishlab chiqilmagan. Shuni ham nazardan qochirmaslik lozimki, riskning qadr-qimmatini belgilash, aniq vaziyatlarda qabul qilinishi zarur bo’lgan qarorlarga bog’lik bo’ladi.

Mavjud adabiyotlarda riskning xislat, xususiyat va elementlari obektiv va subektiv jihatlari o‘zaro munosabatlari, uni mazmunini anglash turlicha tavsiflangan. Riskning mohiyati to’g’risidagi hilma-xil fikrlar ko‘p hollarda bu xodisaning serqirraligi amalda mavjudligidir. Xo‘jalik faoliyati qonuniyatlarida uni to’liq tan olinmasligi, real iqtisodiy amaliyotda va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo‘llanilmasligi bilan sharhlanadi. Undan tashqari risk bu – bir-biriga mos kelmaydigan, ba’zida xatto qarama-qarshi real holatlar yig‘indisidan iborat murakkab jarayondir. Risk tushunchasi rus tilidagi “Risk” so‘ziga ekvivalent sifatida olindi. Endi “Risk” toifasidagi tushunchaga nisbatan mavjud ba’zi-bir yondashuvlarni qarab chiqamiz.

“Risk” termini grekcha ridsikon, ridsa - so‘zlarida tik qoya, qoyatosh mazmunini anglatsa, italyancha “risiko” - so‘zida havfli, havf-xatar, risicarechzida qoyalarga chap bermoq mazmunini anglatadi. Fransuzcha “risdoe” tahlika, havf-xatar, qo‘rqinch, (tik qoyadan aylanib o‘tishda goyoki tavakkal qilish) mazmunini anglatadi. Vebster lug‘atida “risk” zarar yoki ziyon ko‘rish imkoniyati, havf-xatari deyilsa, Ojegova lug‘atida “risk” so‘ziga “havf-xatar xolati imkoniyati” yoki “muvaffaqiyatli xarakat” deb tarif beriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, maxsus lug‘atlarda (falsafa, xarbiy, iqtisodiy va x.z) – “risk”

tushunchasi umuman uchramaydi. U xatto katta sovet ensiklopediyasi va sovet ensiklopedik lug‘atining oxirgi nashrlarida, besh tomli falsafiy ensiklopediya va falsafiy ensiklopedik lug’atida, hamda “Ilmiy-texnik taraqqiyot” lug’ati va boshqalarda ham uchramaydi. Tahlillar, adabiyotlarda “risk” to‘g‘risidagi tushunchaga omadsizlik yoki havf-xatarga (havf-xatar holati) imkoniyat degan tarif keng tarqalganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ham shu xol ko‘rinadi.

“Moliyaviy menejment” kitobida unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Risk” – risk - bu bashorat qilinayotgan variantlarga nisbatan daromad ololmaslik yoki zararlarini paydo bo’lish ehtimoliyatidir. “Zamonaviy biznesda risk” kitobida: risk deganda ma’lum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish natijasida qo‘shimcha xarajatlarni paydo bo’lishi yoki daromadning olinmasligi hamda tashkilot tomonidan o’z resurslarini yo’qotish ehtimoliyatini anglash tushuniladi” - deb ta’rif beriladi. Yuqorida keltirilgan barcha ta’riflardan: “riskni havf-xatar, zarar ko‘rish holati” - degan hususiy xislatini ajratib ko’rsatish mumkin bo’ladi. Lekin keltirilgan ta’riflar riskning barcha mazmuni, mohiyatini to’liq ifodalay olmaydi.

“Risk”ning tarifini to’liq belgilash uchun, oldin “risk vaziyati” tushunchasiga ta’rif berishimiz kerak, chunki u bevosita “risk” -termini mazmuni bilan uzviy bog‘liq. Biz rus lug’atida qabul qilingan gap “Risk” –so’zini “risk” deb tarjima qildik. Bu terminning yana ekvivalenti o’zbek tilida “qaltislik” va “risk”ni o’zini ishlatish kerak degan fikrlar bor. Chunki “Risk” so’zi “Risk”ni to’la mazmunini o’zbek tilida ifodalay olmaydi. Kelajak o’zbek tilida qaysi so’zni tanlashni ko’rsatib berar. **“**Vaziyat” tushunchasi u yoki bu faoliyat uchun imkoniyat yaratuvchi turli holat va shart-sharoitlar jamlamasining birikuvi deb tarif berish mumkin. Bunday holda vaziyat mazkur faoliyatini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratish yoki unga to’sqinlik qilishi mumkin.

Har xil vaziyat turlari ichida, risk vaziyati alohida o’rin tutadi. Aksariyat iqtisodiy jarayonlarni amal qilish va rivojlanishi noaniqlik, ya’ni, mavhumlik elementlarga tayanadi. Bu esa bir xil echimi bo‘lmagan vaziyatlarni yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Agar u yoki bu vaziyatni ehtimoliyati darajasini miqdor va sifat jihatdan aniqlash imkoniyati mavjud bo’lsa u risk vaziyati bo‘ladi. Bu yerda risk vaziyati statistik jarayonlarga bog’liq bo’lib, unga mavjud bo‘lgan uchta shart xamrohlik qiladi - degan xulosa kelib chiqadi. Ularga:

- noaniqlikning (mavhumlikning) mavjudligi;
- muqobil (alternativ) tanlovning zarurligi (bu holda, shuni ham nazarda tutish kerakki, tanlovdan voz kechish boyicha tovlash xam tanlov xilma-xilligiga doir bo’ladi);
- tanlangan muqobil variantni amalga oshirish ehtimoliyatini baholash imkoni borligi kiradi. Shuni qayd etish lozimki, risk vaziyati sifat jihatdan noaniklik (mavhumlik) vaziyatidan keskin farq qiladi.

Noaniqlik vaziyati - amalda o’rnatish imkoni bo‘lmagan xodisa va qarorlar natijalarini xosil bo‘lish ehtimoliyatidir. Shunday qilib, risk vaziyatini aniqlanishi

mumkin bo‘lgan va amalga oshuvchi xodisalar ehtimoliyatidagi noaniqliklar xilma-xilligi deb tarif berish mumkin. Ya’ni, bu holda taxminan sheriklarning ishlab chiqarishdagi hamkorligidagi faoliyati, raqiblarning qarshi harakati, iqtisodiyot taraqqiyotiga tabiiy muhitning ta’siri, ishlab chiqarishga ilmiy texnik yutuqlarni joriy etish natijasida paydo bo‘luvchi xodisalar ehtimolini obektiv baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Riskni bir necha turlarga bo‘lish mumkin:

- ixtiyoridagi bir nechta muqobillikdan tanlovchi subekt, bashorat qilinayotgan natijalarni olish uchun obektiv ehtimoliyatiga (statistik tadqiqotlar natijalariga asoslanuvchi) ega bo‘ladi;
- kutilayotgan natijalarni ro‘y berish ehtimoli faqatgina subektiv baholash orqali olinadi, ya’ni, subektiv ehtimollik bilan ish ko‘radi;
- alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obektiv va tanlash jarayonida obektiv va subektiv ehtimollikka ega bo‘ladi;
- kutilayotgan natijalarni ro‘y berish ehtimoli faqatgina subektiv baholash orqali olinadi, ya’ni, subekt, subektiv ehtimollik bilan ish ko‘radi;
- alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obektiv va subektiv ehtimollikklarga ega.

Tavakkalchiliik vaziyatlardan “chiqish uchun”, subekt tanlov o‘tkazadi va uni amalga oshirishga xarakat qiladi. Risk tushunchasini anglash aynan shu jarayonda o‘z ifodasini topadi. Subektning faoliyat rejasi esa bu jarayon risk tushunchasini anglashda o‘z ifodasini topadi. Amalga oshirishga harakat qilish uchun qaror tanlovi bosqichida bo‘lganidek, amalga oshirish bosqichida xam mavjud bo‘ladi. Bu va boshqa xollarda risk konkert ziddiyatlarni noaniq vaziyatda rivojidagi qarama-qarshi intilishlari orqali amaliy yechimini topish usuli bilan subekt tomonidan noaniqliklarni olish modelini ifodalaydi. Risk - bu omadsizlik holatida vaqtincha tanlovga qadar bo‘lgan xoldan ham yomon vaziyatda bo‘lish imkoniyati mavjud bo’lganida tanlov sharoitida amalga oshiriluvchi faoliyat (hatti-harakat)dir. Bu tarifda omadsizlik havf-xatar xolati bilan bir qatorda, alternativlik (muqobillik) kabi hislat ham ishtrok etadi. Risk - bu muqarrar tanlov vaziyatidagi noaniqliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq jarayonda ko‘zlangan natijalarga erishish omadsizlik va maqsaddan chekinish ehtimolini miqdor va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud xoldagi faoliyatidir.

“Risk” - xodisasida uning mohiyatini tashkil etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi asosiy elementlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tanlangan muqobillikni (alternativani) amalga oshirish maqsadida ko‘zlagan maqsaddan chekinish mumkinligi;
- ko‘zlagan natijaga erishishning ehtimolligi;
- ko‘zlagan maqsadga erishish uchun ishonchsizlik (ishonchning yo‘qligi);
- alternativani noaniq sharoitdagi tanlovni amalga oshirish bilan bog‘liq moddiy, ma’naviy va boshqa yo‘qotishlarning mavjudligi.